XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 22-aprel VII-7-46-7-100-K/25 Payariq tumani

Payariq tumani hududining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni hamda 2024-yil 29-noyabrdagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PQ-407-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Payariq tumani “Choshtepa” mahalla fuqarolar yig‘ini hamda “Zarafshon” mahalla fuqarolar yig‘inining 2025-yil 1-aprel oyidagi yig‘ilish bayonlari, Payariq tumanidan 181,73 ga yer uchastkasini Oqdaryo tumani tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risidagi asoslantirilgan xulosalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga asosan xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining VII chaqiriq, yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Payariq tumanidagi “Choshtepa” mahalla fuqarolar yig‘ini hamda “Zarafshon” mahalla fuqarolar yig‘inining 2025-yil 1-apreldagi yig‘ilish bayonlari hamda tuman hokimining o‘rinbosari R.Ismailovning 2025-yil 3-apreldagi 1951-sonli bildirish xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Payariq tumanidan Oqdaryo tumani tarkibiga o‘tkaziladigan yerlar chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

- kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi kotibiyati (J.Axunov) mazkur qarorni xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashida ko‘rib chiqish uchun yuborsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari (S.Maxkamov, B.Shakarov) va tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

MAXKAMOV SOBIR
TUXTAMISHOVICH

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2025-yil 22-apreldagi
VII-7-46-7-100-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Payariq tumanidan Oqdaryo tumaniga o‘tayotgan hududiy birliklar chegarasining
TAVSIFI

Samarqand viloyatining yangi tashkil etilayotgan ma’muriy markazi chegarasi **A dan B gacha Payariq tumani yerlari bilan chegaradosh bo‘lib, B dan A gacha Oqdaryo tumani yerlari bilan chegaradosh bo‘lib, tavsifi quyidagicha:**

Oqdaryo daryosi ustidan o‘tadigan 4k-493-B avtomobil yo‘li ko‘prigining sharq tomoni hamda Oqdaryo tumani, Payariq tumanining yangi chegara chiziqlari tutashgan joyi boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar o‘lchamida, shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47′ 46,541", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 54′ 33,350").*

1-nuqtadan chegara chizig‘i Oqdaryo daryosining ustidan o‘tadigan 4k-493-B avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 522 metr masofada 4k-506 avtomobil yo‘lining bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 48′ 01,082 ", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 54′ 43,256 ").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i 4k-506 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 477 metr masofada o‘tib, aholi uylari devorining burchagida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°47′52,940", sharqiy uzunlik koordinatlari 66°54′ 59,749).*

3-nuqtadan chegara chizig‘i aholi uylar devori bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 140 metr masofada o‘tib, ariqning bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47′ 49,364", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 54′ 56,758").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 406 metr masofada o‘tib, ariqning burilishida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47′ 40,413", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55′ 08,398").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishda 162 metr masofada o‘tib, 4k-506 avtomobil yo‘lining bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47′ 40,171", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55′ 14,868").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i 4k-506 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 506 metr masofada o‘tib, ariqning bo‘yida joylashgan 7-

nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 27,398", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 28,191").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 89 metr masofada o‘tib, ariqning burilishida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 25,580", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 25,314").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 305 metr masofada o‘tib, qishloq ichki yo‘lining bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 19,821", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 35,316").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 583 metr masofada o‘tib, aholi yerlari chegarasida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39°41ʻ35.92", sharqiy uzunlik koordinatlari 67° 4ʻ5.48").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i aholi yerlari chegarasi bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 81 metr masofada o‘tib, aholi yerlari chegarasida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 01,172", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 39,140").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i aholi yerlari chegarasi bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 29 metr masofada o‘tib, aholi yerlari chegarasida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 00,265", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 39,511").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i aholi yerlari chegarasi bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 60 metr masofada o‘tib, ariqning bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 00,820", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 41,922").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yo‘nalishda 238 metr masofada o‘tib, ariqning bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 55,817", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 47,220").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 130 metr masofada o‘tib, qishloq ichki yo‘lining bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 53,427", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 50,780").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arb yo‘nalishda 123 metr masofada o‘tib, dala tuproq yo‘lining bo‘yida joylashgan joylashgan 16-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 49,927", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 55ʻ 48,341").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda dala tuproq yo‘lining yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab 740 metr masofada o‘tib, ariqning bo‘yida joylashgan

17-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 34,575", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 56ʻ 10,868").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 405 metr masofada ariqning bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 23,925", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 56ʻ 01,343").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishda 70 metr masofada Oqdaryo daryosining bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 22,155", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 56ʻ 02,951").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Oqdaryo daryosini 98 metr masofada kesib o‘tib, Oqdaryo tumani yerlari bilan chegaradosh 20-nuqtaga tutashadi (*shimoliy kenglik koordinatlari 39° 46ʻ 18,970", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 56ʻ 02,682").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i Oqdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2983 metr masofada o‘tib, daryo burilishida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 26,056", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 54ʻ 46,776").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i Oqdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy yo‘nalishda 266 metr masofada o‘tib, daryo burilishida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 34,483", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 54ʻ 47,615").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i Oqdaryo daryosining suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 509 metr masofada o‘tib, Oqdaryo daryosining ustidan o‘tadigan avtomobil ko‘prigining sharq tomonida joylashgan dastlabki 1-nuqtaga tutashib tugaydi *(shimoliy kenglik koordinatlari 39° 47ʻ 46,541", sharqiy uzunlik koordinatlari 66° 54ʻ 33,350").*

Xalq deputatlari Payariq tumani
Kengashining
2025-yil 22-apreldagi
VII-7-46-7-100-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Samarqand viloyati Payariq tumanidan Oqdaryo tumaniga o‘tkazilayotgan yerlarning chegara chizig‘ining kartografik chizmasi



Shartli belgilar

Payariq tumanidan Oqdaryo tumaniga o‘tkazilayotgan yer maydoni

1 *Payariq tumanidan Oqdaryo tumaniga o‘tkazilayotgan yer maydoni chegarasining nuqtalari va raqamlari*